

OFERTA SHARTNOMASI

Toshkent sh.

15.09.2025 yil

"ADM JIZZAKH" MChJ, keyingi o'rinlarda "Tashkilotchi" deb ataladi, nomuayyan shaxslar doirasiga (keyingi o'rinlarda "Ishtirokchi" deb ataladi) yo'naltirilgan ushbu oferta shartnomasini (keyingi o'rinlarda "Oferta" deb ataladi) e'lon qiladi. Ushbu Oferta O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Ishtirokchining Tanlovda ishtirok etish uchun Ofertaning 3-bo'limida ko'zda tutilgan usullardan biri orqali ariza berishi ushbu Ofertaning aksepti hisoblanadi.

1. Shartnoma predmeti

- 1.1. Tashkilotchi devor bezovchi rassomlar uchun "ADM STREET ART CHALLENGE" ijodiy tanlovini (keyingi o'rinlarda "Tanlov" deb yuritiladi) o'tkazadi.
- 1.2. Ushbu ofertani akseptlagan Ishtirokchi mazkur Oferta va 1-ilovada (Tanlov reglamenti) belgilangan tartibda Tanlovda ishtirok etish huquqiga ega bo'ladi.
- 1.3. Tashkilotchi quyidagilarni o'z ichiga olgan Tanlovni tashkil etishni ta'minlash majburiyatini oladi: arizalarni qabul qilish va ro'yxatdan o'tkazish; hakamlar hay'ati a'zolari tomonidan eskizlarini tanlash; surat chizish uchun yuzali maydon taqdim etish; yakuniy bosqichni tashkil etish va natijalarni sarhisob qilish.

2. Ishtirok etish shartlari

- 2.1. 18 yoshga to'lgan har qanday muomalaga layoqatli jismoniy shaxs ishtirokchi bo'lishi mumkin. 18 yoshga to'lmagan shaxslar ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslarning yozma roziligi bo'lgan taqdirda qo'yiladi.
- 2.2. Ishtirok etish bepul. Eskiz va suratni yaratish bo'yicha barcha xarajatlarni Ishtirokchi o'z zimmasiga oladi.
- 2.3. Ishtirok etish uchun ariza bilan birgalikda quyidagilar ilova sifatida yuborilishi kerak: eskiz (JPG/PNG), konsepsiya tavsifi, FISH, telefon va e-mail. Ariza shakli quyidagi elektron manzilda joylashgan:
<https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSeREONkSDFqd5KR8SB7V9vcB2PbhcWZQH5Jw5KTWP9J1JOmfg/viewform>
- 2.4. Ishtirokchi mualliflik, uchinchi shaxslarning huquqlariga rioya qilish va xavfsiz materiallardan foydalanishni kafolatlaydi.
- 2.5. Tashkilotchi Oferta yoki Reglament buzilgan taqdirda ishtirok etishni rad etishga haqli hisoblanadi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

- 3.1. Tashkilotchi finalchilarni shaffof tarzda tanlab olinishini ta'minlash, surat chizish uchun yuzali maydon taqdim etish va sovrinlarni to'lash majburiyatini oladi.
- 3.2. Tashkilotchi Tanlov shartlarini o'zgartirish, taqiqlangan ishlarga yo'l qo'ymaslik, ularni kompensatsiya to'loviz o'chirib tashlash yoki bo'yash huquqiga ega. O'zgartirishlar rasmiy manbalarda e'lon qilinadi va e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi.

3.3. Ishtirokchi ishni shaxsan o'zi bajarish, ko'rsatmalarga rioya qilish, yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi.

4. Ish natijalariga bo'lgan huquqlar

4.1. Ishtirokchi Tashkilotchiga har qanday reklama, marketing va PR materiallarida ijodiy ishlarning suratlaridan bepul, eksklyuziv bo'lmagan, muddatsiz foydalanish, shuningdek, ularni moslashtirish (qirqish, tahrirlash, kollaj yaratish) huquqini beradi.

4.2. Mualliflik huquqi Tashkilotchida saqlanadi.

4.3. Tashkilotchi muallifning roziligisiz ijodiy ishlarni demontaj qilish yoki bo'yash huquqiga ega.

5. Sovrin jamg'armasi

5.1. Sovrin jamg'armasi Tashkilotchining mablag'lari hisobidan shakllantiriladi.

5.2. Sovrinlarning miqdori va ularni taqsimlash tartibi Reglament bilan belgilanadi.

5.3. Soliqlar qonun hujjatlariga muvofiq ushlab qolinadi.

6. Mas'uliyat

6.1. Ishtirokchi o'z harakatlari, uskunolari va materiallarining xavfsizligi uchun to'liq javobgar bo'ladi.

6.2. Tashkilotchi Ishtirokchi yoki uchinchi shaxslarning aybi bilan yuzaga kelgan jarohatlar, mol-mulkka yetkazilgan zarar yoki ariza topshirishdagi uzilishlar uchun javobgar bo'lmaydi.

6.3. Tashkilotchi Tanlov yakunlangandan so'ng ishlarning saqlanishini kafolatlamaydi.

7. Nizolarni hal etish

7.1. Nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

7.2. Nizoni hal etish imkoni bo'lmagan taqdirda, Tashkilotchi joylashgan joydagi fuqarolik sudiga o'tkaziladi.

8. Yakunlovchi qoidalar

8.1. Tashkilotchi Oferta va Tanlov reglamentini bir tomonlama tartibda o'zgartirish huquqiga ega. O'zgarishlar Tashkilotchining rasmiy manbalarida e'lon qilinadi.

8.2. Ariza topshirish Oferta, Reglament shartlariga va shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashga, shu jumladan fotosuratlar va video materiallarda Ishtirokchining tasviridan foydalanishga rozilik berishni anglatadi.

8.3. Oferta Tashkilotchi tomonidan bekor qilinguniga qadar amal qiladi.

1-ilova

"ADM STREET ART CHALLENGE" Tanlovi reglamenti (maqsadlar, talablar, baholash mezonlari, mukofot jamg'armasi miqdori, o'tkazish tartibi).

ДОГОВОР-ОФЕРТА

об участии в творческом конкурсе «ADM STREET ART CHALLENGE»

г. Ташкент

15.09.2025 г.

ООО «ADM JIZZAKH», именуемое в дальнейшем «Организатор», публикует настоящий договор-оферту (далее – «Оферта»), адресованный неопределенному кругу лиц (далее – «Участник»). Настоящая Оферта является публичной офертой в соответствии со статьями 367 и 369 Гражданского кодекса Республики Узбекистан. Акцептом настоящей Оферты признается подача Участником заявки на участие в Конкурсе любым из способов, предусмотренных разделом 3 Оферты.

1. Предмет договора

- 1.1. Организатор проводит творческий конкурс «ADM STREET ART CHALLENGE» для художников-оформителей стен (далее – «Конкурс»).
- 1.2. Участник, акцептовавший настоящую Оферту, приобретает право участвовать в Конкурсе в порядке, установленном настоящей Офертой и Приложением №1 (Регламент Конкурса).
- 1.3. Организатор обязуется обеспечить организацию Конкурса, включая: прием и регистрацию заявок; отбор эскизов членами жюри; предоставление поверхности для росписи; организацию финального этапа и подведение итогов.

2. Условия участия

- 2.1. Участником может быть любое дееспособное физическое лицо, достигшее 18 лет. Лица младше 18 лет допускаются при наличии письменного согласия родителей или законных представителей.
- 2.2. Участие бесплатное. Все расходы по созданию эскиза и росписи несет Участник.
- 2.3. Для участия необходимо направить заявку с приложением: эскиза (JPG/PNG), описания концепции, ФИО, телефона и e-mail. Заявки принимаются онлайн через Google-форму. Форма заявки располагается по электронному адресу:
<https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSeREONkSDFqd5KR8SB7V9vcb2PbhcWZQH5Jw5KTWP9J1JOfmfg/viewform>
- 2.4. Участник гарантирует авторство, соблюдение прав третьих лиц и использование безопасных материалов.
- 2.5. Организатор вправе отказать в участии при нарушении Оферты или Регламента.

3. Права и обязанности сторон

- 3.1. Организатор обязуется обеспечить прозрачный отбор финалистов, предоставить поверхности, выплатить призы.
- 3.2. Организатор вправе изменять условия Конкурса, не допускать запрещенные работы, удалять или закрашивать их без компенсации. Изменения публикуются на официальных ресурсах и вступают в силу с момента публикации.

3.3. Участник обязуется лично выполнить работу, соблюдать инструкции, возместить причиненный ущерб.

4. Права на результаты работ

4.1. Участник предоставляет Организатору безвозмездное, неисключительное, бессрочное право использования изображений работ в любых рекламных, маркетинговых и PR-материалах, а также право их адаптации (обрезка, редактирование, коллаж).

4.2. Авторские права сохраняются за Организатором.

4.3. Организатор вправе демонтировать или закрасить работы без согласия автора.

5. Призовой фонд

5.1. Призовой фонд формируется за счет средств Организатора.

5.2. Размер и порядок распределения призов определяется Регламентом.

5.3. Налоги удерживаются в соответствии с законодательством.

6. Ответственность

6.1. Участник несет полную ответственность за безопасность своих действий, оборудования и материалов.

6.2. Организатор не несет ответственности за травмы, ущерб имуществу или сбои при подаче заявки, возникшие по вине Участника или третьих лиц.

6.3. Организатор не гарантирует сохранность работ после завершения Конкурса.

7. Урегулирование споров

7.1. Споры решаются путем переговоров.

7.2. При невозможности урегулирования спор передается в гражданский суд по месту нахождения Организатора.

8. Заключительные положения

8.1. Организатор вправе изменять Оферту и Регламент Конкурса в одностороннем порядке. Изменения публикуются на официальных ресурсах Организатора.

8.2. Подача заявки означает согласие с условиями Оферты, Регламента и на обработку персональных данных, включая использование изображения Участника в фото- и видеоматериалах.

8.3. Оферта действует до момента ее отзыва Организатором.

Приложение №1

Регламент Конкурса «ADM STREET ART CHALLENGE» (цели, требования, критерии оценки, размер призового фонда, порядок проведения).